

MEDALYONLAR TARIXI

Zohidov Ilyos Botir o'g'li

*Toshkent davlat texnika universiteti
"Sanoat dizayni" kafedra talabasi
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh.,
Universitetskaya ko'chasi 2a*

HISTORY OF MEDALLIONS

*Tashkent State Technical University
Student of the Department of "Industrial Design"
Republic of Uzbekistan, Tashkent,
Universitetskaya Street 2a*

Annotatsiya: *G'arb zargarlik buyumlari qadimdan o'zining ajoyib go'zalligi bilan mashhur. Ko'p asrlar oldin ular Buyuk ipak yo'li bo'ylab Evropaga olib kelingan. Osiyoning turli mintaqalarining zargarlik san'ati ishlatilgan materiallar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, texnikasi bilan ajralib turadi.*

Kalit so'zlar: *bionika, mahsulotlar, zargarlik buyumlari, rang, mato, marjon, plastinka.*

Abstract: *West jewelry has long been famous for its extraordinary beauty. Many centuries ago, they were brought to Europe along the Great Silk Road. The jewelry art of different regions of Asia is distinguished by the materials used, precious and semi-precious stones, and techniques.*

Keywords: *bionics, products, jewelry, color, fabric, necklace, plate.*

Medalon — bu oval yoki doira ko'rinishida ishlangan taqinchoqdir. Buyumda, qoidaga ko'ra, odamning portreti, uning ismi-sharifining bosh harflari yoki qandaydir bir muhim voqea-hodisaning fragmenti tasvirlanadi.

Bugungi kunda medalonlarning paydo bo'lish tarixini aniqlash juda qiyin. Bu taqinchoqlarga kiritilgan ma'no-mazmun asrlar davomida doimo o'zgarib kelgan. Qadimgi Rimda boy qilib bezatilgan, shakli bo'yicha yirik tilla tangaga o'xshaydigan disk g'alabani nishonlash paytida harbiy boshliqlarga mukofot sifatida topshirilgan. Bu mukofot muvaffaqiyat, mardlik, e'tiqod, or-nomus va jasurlik ramzi bo'lib hisoblangan.

Medalon kulondan shu bilan farq qiladiki, unda odamning portreti, ismi-sharifining bosh harflari yoki qandaydir bir tarixiy hodisaning sxematik eskizi tasvirlangan bo'lishi lozim.

Yevropada zodagonlarning vakillari bunday taqinchoqlardan ko'proq yashirin maqsadlarda foydalanishni afzal ko'rganlar. Ular medalonlarga o'zlarining

sevgilisining fotosurati yoki soch o‘rimlarini yashirganlar. Ba’zan buyurtma bo‘yicha ichida ikkita rasmi bor medalonlar tayyorlangan. Uddaburon va tajribali usta esa taqinchoqqa hatto sakkiztagacha rasmlarni joylashtira olgan. Soch o‘rimlarini saqlash uchun mo‘ljallangan aksessuarlarda taqinchoqni ochmasdan uning ichidagi narsani ko‘rish uchun devorlardan biri shaffof materialdan ishlangan.

Ilgari zargarlar medalonlarga ishlov berishda o‘zlarining fantaziyalarini chegaralamaganlar. Taqinchoqlar emallangan, yaltiratilgan, chernlangan, gravirovka bilan qoplangan, dur yoki qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. O‘shanda medalonlarni dabdabali va yirik qilib ishlashga harakat qilingan.

Medalonni an’anaviy tarzda bo‘yinga taqish usuli anchagina keyin paydo bo‘lgan. Ilgari bu buyumlar kiyimga, belbog‘ga taqilgan yoki cho‘ntakda olib yurilgan, bugungi kunda esa original variantni uchratish mumkin – ulardan bilaguzuklarga osma sifatida foydalaniladi.

Bundan uch yuz yil oldin “aylanuvchi medalonlar” deb ataluvchi medalonlar keng tarqalishga ega bo‘lgan. Ularning konstruksiyasi taqinchoq o‘zining o‘qi atrofida erkin aylanadigan qilib ishlangan.

Odamlar shuningdek hid taratuvchi medalonlarni ko‘proq taqqanlar. Bunday aksessuarga atir shimdirilgan kichkina yostiqcha qo‘yish lozim bo‘lgan, hid buyumning korpusidagi maxsus teshikchalar orqali taralgan – bu zamonaviy qattiq atirlarning analogi bo‘lgan.

Hozirgi zamonaviy olamda medalonlar kamdan-kam hollarda chuqur ma’no-mazmun bilan og‘irlashtiriladi va ko‘proq estetik funksiyani bajaradi. Sovetlar davrida bunday taqinchoqlarga bo‘lgan e’tibor biroz susaygan, biroq bugungi kunda medalonlar trendlar ro‘yxatida yana yetakchi pozitsiyalarni egallagan, ularni deyarli hamma narsa bilan birlashtirish mumkin. Bu vintsimon sviterlar, hid taratadigan ajoyib ko‘ylaklar, hajmli qat’iy jaketlar, naqshli bluzkalardir.

Zamonaviy moda medalonlarga yana ommaviylikni qaytargan. Retro stilidagi taqinchoqlar zamonaviy ayollar garderobining ajralmas qismiga aylangan, dizaynerlik kolleksiyalari esa vintsimon va kreativ medalonlar bilan to‘ldirilmoqda. Medalon, ayniqsa u qo‘lda bajarilgan ish bo‘lsa, har qanday shaklga ega bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda ayniqsa ichiga qattiq atir quyilgan medalonlar ommaviylashgan.



100-rasm. Medalonlar

Medalonlar ommaviylashib borishi bilan ular birgina qimmatbaho metallardan emas, balki oddiy materiallardan ham, masalan, polimer loy, yog'och, hatto matodan ham tayyorlana boshlagan. Qo'lda bajarilgan stilli bijuteriya ayniqsa qadrlanadi – chunki ular bitta nusxada bajarilgan noyob ishlar bo'lib hisoblanadi. Biroq oltin va kumushdan ishlangan medalonlar ham pozitsiyalarini yo'qotgani yo'q. Bunday taqinchoqlar ko'pincha qizlarga cho'qintirish marosimlari, tug'ilgan kunlar va Sevishganlar kunida sovg'a qilinadi.

Garchi qutichada taqinchoqlar ko'p bo'lsada, har mavsumdv bozorni ko'rish lozim bo'ladi, chunki moda bir joyda qotib turmaydi – har bir mavsum taqinchoqlarning dizayniga yangiliklarni olib kiradi. Shu sababli bozorga va zargarlik buyumlari do'konlariga tez-tez kirib turish va o'zini yangi dizayndagi buyumlar bilan xursand qilish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Луговой В.П. “Конструирование и дизайн ювелирных изделий”- М: изд. “Высшая школа”, 2017.
2. Батырова Е. Выбираем украшения с ювелирной точностью / -М., 2006.
3. Марченков В.И. Ювелирное дело. -М.:, 1990.
4. Абдуллаев Т., Фахреддинова Д., Хакимов А. Песнь о металле. -Т.: Изд. литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1986.

Internet saytlari:

1. Камбарова Ойдин Собиржановня Ювелирные искусства Узбекистана // Наука, образование и культура. 2019. №6 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuvelirnye-iskusstva-uzbekistana> (дата обращения: 14.01.2022).
2. Камбарова Ойдин Собиржановна ГЕНЕЗИС УКРАШЕНИЙ ХОРЕЗМА // Наука, образование и культура. 2021. №3 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/genezis-ukrasheniy-horezma> (дата обращения: 14.01.2022).

3. Камбарова Ойдин Собиржановна Эволюция пробирования драгоценных металлов // Наука, образование и культура. 2020. №4 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-probirovaniya-dragotsennyh-metallov> (дата обращения: 14.01.2022).

4. Камбарова Ойдин Собиржановна Влияние бионических закономерностей на дизайн автомобильной продукции // Наука, образование и культура. 2019. №6 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-bionicheskikh-zakonomernostey-na-dizayn-avtomobilnoy-produktsii> (дата обращения: 14.01.2022).

5. Камбарова Ойдин Собиржановна The art of jewelery-making in ancient Khorezm // Евразийский научный журнал. 2017. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-art-of-jewelery-making-in-ancient-khorezm> (дата обращения: 05.08.2022).